

“APPROVED BY”
Decision of IMB/LGD/HO/21/70
Management Board Meeting
dd. 27.12.2021



Jong Seon Kim
Chairman of the Management Board



“TASDIQLANGAN”
Bank Boshqaruvining
27 dekabr 2021 yildagi
IMB/LGD/HO/21/70 - sonli majlisi
Bayonnomasiga muvofiq



KDB Bank Uzbekistan

PROCEDURE ON COMBATING BRIBERY AND CORRUPTION

/

**PORAXO‘RLIK VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH
TARTIBI**

Registration / Ro'yhat raqami #: 172Version/ Tahrir #: COMP/3.0.-2021Date/ Sana: 27.12.2021

I. ABBREVIATIONS / QISQARTMALAR	
II. DOCUMENT IDENTIFICATION / HUJJATLAR IDENTIFIKATSIYASI	
Document owner / Hujjat egasi:	Compliance Department / Komplayns boshqarmasi
Document author / Hujjat muallifi:	Diloram Akramova / Masuma Velieva Head of Compliance Department / Head of Anti-bribery and corruption Part Diloram Akramova / Masuma Velieva Komplyans boshqarmasi boshlig'i / Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi boshlig'i
Document author signature / Hujjat muallifi Imzosi:	
Business Location / Manzil:	3, Bukhoro Str., 100047, Tashkent, Compliance Department / 100047, Toshkent sh., Buxoro ko'chasi, 3, Komplayns boshqarmasi
Document status / Hujjat holati:	Final approved version / Tasdiqlangan nusxa
Document classification / Hujjat klassifikatsiyasi:	Company Confidential, Wide internal usage / Bank siri, xizmat doirasida foydalanish uchun
Document Directory path / Hujjat joylashgan joyi:	X:\HO_SHARED_DOCUMENTS\Internal acts\New Versions\APPROVED PDF VERSIONS
III. ASSOCIATED INTERNAL POLICIES AND EXTERNAL REGULATIONS / TEGISHLI ICHKI VA TASHQI ME'YORIY HUJJATLAR:	
Criminal Code of the Republic of Uzbekistan approved by the Law of the Republic of Uzbekistan on 22.09.1994 #2012-XII / O'zR 22.09.1994y. 2012-XII-son Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.	
The Law "On Banks and Banking" #216-1 dd 25.04.1996 / "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun O'RQ-216-son, sana: 25.04.1996y. (Yangi tahriri, O'zR 05.11.2019y. O'RQ-580-son Qonuni bilan tasdiqlangan).	
The Law "On Combating Corruption" #419 dd 03.01.2017 / "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun O'RQ-419-son, sana: 03.01.2017y.	
The Law "About appeals of individuals and legal entities" #445 dd 11.09.2017 / "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonun O'RQ-445-son, sana: 11.09.2017y.	
Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On additional measures on improvement of the anti-corruption system in the Republic of Uzbekistan" #DP-6013	

dd 29.06.2020 / O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.06.2020y. PF-6013-son "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.

Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures to create an atmosphere of intolerance towards corruption, to drastically reduce corruption factors in state and society management and to expand public participation in this process" #DP-6257 dd 06.07.2021 / O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.07.2021y. PF-6257-son "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan "On additional measures for effective organization of anti-corruption activities" #RP-5177 dd 06.07.2021 / O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.07.2021y. PQ-5177-son "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.

Standard regulation on the activities of internal anti-corruption control units (Approved by the order of the Director of the Anti-corruption agency of the Republic of Uzbekistan #27 dd 06.09.2021, registered by the Ministry of Justice on 08.09.2021 #3319) / Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to'g'risidagi Namunaviy nizom (Adliya vazirligi tomonidan 08.09.2021 yil 3319-son bilan ro'yxatga olingan, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 06.09.2021y. 27-son buyrug'li bilan tasdiqlangan).

V. REVISION HISTORY OF DOCUMENT VERSION / HUJJAT TAHRIRI TARIXI

Version / Tahrir	Preparation date / Tayyorlangan sana	Summary of Key changes / Asosiy o'zgartirishlar
COMP/3.0.-2021	27.12.2021	New procedure

Contents / Mundarija

1. General provisions.....	6
1. Umumiy qoidalar.....	6
2. Main terms.....	6
2. Asosiy tushunchalar	6
3. Scope and Purpose	8
3. Qo'llanish doirasi	8
4. Goals, tasks and functions of ABC Part.....	8
4. ABC bo'limining maqsadlari, vazifalari va funksiyalari	8
5. Duties and Responsibilities.....	10
5. Burch va mas'uliyat	10
6. Main risk areas for acts of bribery and corruption.....	12
6. Poraxo'rlik va korrupsiyaviy harakatlarning sodir etilishi xavf-xatarini keltirib chiqaruvchi asosiy omillar.....	12
6.1. Gifts and representative costs.....	12
6.1. Sovg'alar va vakillik xarajatlari	12
6.2. Charity, sponsorship, donations.....	12
6.2. Xayriya, homiylik va hadya.....	12
6.3. Payments via intermediaries or on behalf of third parties	13
6.3. Vositachilar orqali yoxud uchinchi shaxslar manfaatlarini ko'zlab amalga oshiriladigan to'lovlar	13
6.4. Facilitation payments	13
6.4. Biron-bir masalaning hal qilinishini osonlashtirishga qaratilgan to'lovlar	13
6.5. Dealing with public officials	13
6.5. Mansabdor shaxslar bilan munosabatlar	13
6.6. Involvement in political activities	14
6.6. Siyosiy faoliyatga jalb qilish	14
6.7. Conflict of interest	14
6.7. Manfaatlarning to'qnashuvi.....	14
6.8. Employment related risks.....	14
6.8. Ish faoliyatini olib borish bilan bog'liq xavf-xatarlar	14
6.9. "Red flag" situations	15
6.9. "Qizil bayroq" holatlari	15
7. Measures and defences to combat bribery and corruption.....	16
7. Poraxo'rlik va korrupsiyaga qarshi kurashish choralari va himoya vositalari.....	16

7.1. Tone from the Top	16
7.1. Yuqoridan ohang.....	16
7.2. Risk assessment.....	16
7.2. Xavf-xatarlarni baholash	16
7.3. Due diligence	18
7.3. Lozim darajada tekshirish	18
7.4. Training and awareness	18
7.4. O'qitish va ogohlik	18
7.5. Whistleblowing, investigations, protection to whistleblower	19
7.5. Fosh qilish, tekshiruvlar va xabardor qiluvchini himoya qilish	19
7.6. Record keeping.....	20
7.6. Yozuvlarni yuritish.....	20
8. Periodic review of procedure and continuous improvement	21
8. Mazkur tartibni vaqti-vaqti bilan ko'rib chiqish va doimiy takomillashtirib borish	21
Appendix No.1	22
1-ilova.....	22

<p style="text-align: center;">1. General provisions</p> <p>1.1. The Procedure on Combating Bribery and Corruption (hereinafter referred to as “Procedure”) is based on the Anti-Corruption Policy of the JSC “KDB Bank Uzbekistan” (hereinafter referred to as “Bank”).</p> <p>1.2. Current procedure defines the various controls designed to prevent, detect and investigate any suspicions of bribery and corruption within Bank, and ensure that the Bank and its subsidiaries comply with all relevant legal and regulatory requirements in these areas.</p> <p>1.3. The procedure is drawn up in accordance with the Law of the Republic of Uzbekistan “On Combating Corruption”, Law of the Republic of Uzbekistan “On Banks and Banking Activity”, “Standard for combating corruption in the activities of commercial banks”, developed by Uzbekistan Banking Association, International standard on anti-bribery management systems “ISO 37001:2016”, developed by International Organization for Standardization, Charter of the Bank and other internal documents of the Bank.</p> <p>1.4. This procedure is an integral part of all of the Bank’s internal regulations including, but not limited to:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Policy for the prevention and management of Conflicts of Interest; • Human resources and Code of Conduct policy; • Regulation on Compliance Committee; • Regulation on Commission for Prevention of Corruption. <p style="text-align: center;">2. Main terms</p> <p>In this procedure the following basic concepts are applied: Bribery - receiving, giving a bribe or</p>	<p style="text-align: center;">1. Umumiy qoidalar</p> <p>1.1. Poraxoʻrlik va korrupsiyaga qarshi kurashish Tartibi (keyingi oʻrinlarda - “Tartib”) “KDB Bank Oʻzbekiston” AJning (keyingi oʻrinlarda - “Bank”) Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga asoslanadi.</p> <p>1.2. Ushbu tartib Bank doirasida har qanday poraxoʻrlik va korrupsiya alomatlariga ega holatlarni oldini olish, aniqlash va tekshirishga qaratilgan turli xil nazorat choralarini belgilaydi hamda Bank va uning tarkibiy tuzilmalari tomonidan mazkur sohadagi barcha tegishli huquqiy va tartibga soluvchi talablarga rioya qilinishini taʼminlaydi.</p> <p>1.3. Mazkur tartib “Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida”gi, “Banklar va bank faoliyati toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunlariga, Oʻzbekiston banklari assotsiatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan “Tijorat banklari faoliyatidagi korrupsiyaga qarshi kurashish standarti”ga, Xalqaro standartlashtirish tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan poraxoʻrlikka qarshi boshqaruv tizimlari boʻyicha “ISO 37001:2016” xalqaro standartiga, Bank Ustavi va boshqa ichki qoidalari asosida ishlab chiqilgan.</p> <p>1.4. Joriy tartib Bankning quyidagi barcha ichki qoidalarining ajralmas qismi hisoblanadi va bular bilan cheklanmaydi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Manfaatlar toʻqnashuvining oldini olish va bartaraf etish siyosati; • Xodimlar bilan ishlash va odob-axloq siyosati; • Komplayns qoʻmitasi toʻgʻrisidagi Nizom; • Korrupsiyaning oldini olish boʻyicha komissiya toʻgʻrisidagi Nizom. <p style="text-align: center;">2. Asosiy tushunchalar</p> <p>Ushbu tartibda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi: Poraxoʻrlik - pora olish, pora berish yoki bu</p>
--	---

mediation in these crimes;

Corruption - illegal use by a person of official or duty position with the aim of obtaining tangible or intangible benefits in personal interests or in the interests of other persons, and an unlawful provision of such benefit;

Corruption offense - an act possessing signs of corruption, for fulfillment of which the legislation provides for liability;

Corruption risk - the possibility of committing illegal actions of a corrupt nature by Bank employees or third parties;

Conflict of interests - a situation, in which personal interest (direct or indirect) affects or can affect the proper performance by a person of official obligations or duties and in which arises or may arise a contradiction between personal interest and the rights and legitimate interests of citizens, organizations, society or the state;

Due diligence - process to further assess the nature and extent of the bribery risk and help organizations make decisions in relation to specific transactions, projects, activities, business associates and personnel;

Public official - person who is appointed or elected permanently, temporarily or by special authority, who performs the functions of a representative of the authorities or performs organizational and administrative, administrative and economic functions in state bodies, citizens' self-government bodies, at enterprises, institutions, organizations, regardless of the form of ownership and authorized to perform legally significant actions, as well as a person performing these functions in an international organization or in a legislative, executive, administrative or judicial body of a foreign state;

ABC Part - Anti-Bribery and Corruption Part of the Compliance Department.

jinoyatlarda vositachilik qilish;

Korrupsiya - shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik - korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

Korrupsiya xavf-xatari - bank xodimlari yoki uchinchi shaxslar tomonidan korrupsion xarakterdagi noqonuniy harakatlarni sodir etish imkoniyati;

Manfaatlar to'qnashuvi - shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat;

Lozim darajada tekshirish - poraxo'rlik xavf-xatari mohiyati va qamrovini keyinchalik baholash hamda o'ziga xos operatsiyalar, loyihalar, faoliyat turlari, biznes hamkorlar va xodimlarga nisbatan qarorlar qabul qilishda tashkilotlarga yordam ko'rsatish jarayoni;

Mansabdor shaxs - doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo'yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, hokimiyat vakili vazifalarini bajaradigan yoxud davlat organlarida, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida, mulk shaklidan qat'i nazar, korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda tashkiliy-boshqaruv, ma'muriy-xo'jalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan shaxs, xuddi shuningdek xalqaro tashkilotda yoxud chet davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma'muriy yoki sud organida mazkur vazifalarni amalga oshiruvchi shaxs;

ABC bo'limi - Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi.

<p style="text-align: center;">3. Scope and Purpose</p> <p>This procedure applies to all customers, counterparties, management, employees, all Bank activities and operations, its subsidiaries and is intended to govern the day-to-day activities of JSC “KDB Bank Uzbekistan” personnel.</p> <p>The purpose of this procedure is to set out the responsibilities of the Bank’s management and employees in dealing with anti-bribery and corruption issues and to avoid the occurrence of improper and illegal conduct.</p> <p style="text-align: center;">4. Goals, tasks and functions of ABC Part</p> <p>5.1. The main goals of ABC Part are:</p> <ul style="list-style-type: none">• implementation and development of anti-corruption complex system, that meets the requirements of international standard “ISO 37001:2016”;• early detection of bribery and corruption cases and elimination of their causes and conditions;• prevention of the occurrence of corrupt practices;• to increase legal awareness and culture of the Bank employees in order to form intolerant attitude towards corruption;• organization of preventive measures to combat bribery and corruption;• ensuring compliance with anti-corruption documents. <p>5.2. The following are the main tasks of ABC Part:</p> <ul style="list-style-type: none">• improvement of the Bank’s anti-corruption activities;• prevention and combating corruption offenses in the Bank;• monitoring the effective functioning of	<p style="text-align: center;">3. Qo‘llanish doirasi</p> <p>Ushbu tartib barcha mijozlar, kontragentlar, rahbariyat, xodimlar, Bankning barcha faoliyat turlari va operatsiyalari, Bankning tarkibiy tuzilmalariga tatbiq qilinadi va “KDB Bank O‘zbekiston” AJ xodimlarining har kunlik faoliyatini boshqarish uchun mo‘ljallangan.</p> <p>Mazkur tartibdan ko‘zlangan maqsad Bank rahbariyati va xodimlarining poraxo‘rlik va korrupsiyaga qarshi kurash masalalari bilan shug‘ullanishdagi mas’uliyatlarini belgilash hamda noto‘g‘ri va noqonuniy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olishdan iborat.</p> <p style="text-align: center;">4. ABC bo‘limining maqsadlari, vazifalari va funksiyalari</p> <p>4.1. ABC bo‘limining asosiy maqsadlari:</p> <ul style="list-style-type: none">• korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha “ISO 37001:2016” xalqaro standarti talablariga mos ravishda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini joriy etish va rivojlantirish;• korrupsiyaviy holatlarni barvaqt aniqlash va ularning sabab hamda shart-sharoitlarini bartaraf etish;• korrupsiyaviy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish;• Bank tizimi xodimlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish;• korrupsiyaga qarshi profilaktik chora-tadbirlarni tashkil etish;• korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi hujjatlar ijrosini ta‘minlashdan iborat. <p>4.2. Quyidagilar ABC bo‘limining asosiy vazifalari hisoblanadi:</p> <ul style="list-style-type: none">• Bankning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatini takomillashtirish;• Bankda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish;
---	--

<p>the Bank's anti-corruption system;</p> <ul style="list-style-type: none">• cooperation with other state bodies and organizations carrying out and participating in anti-corruption activities. <p>5.3. The main functions of ABC Part:</p> <ul style="list-style-type: none">• develops drafts of internal documents aimed at implementing measures to combat bribery and corruption;• assesses corruption and bribery risks;• analyzes complaints received through special communication channels on corruption risks and violations and ensures their consideration in accordance with the established procedure;• provides explanations and recommendations to the Bank's employees on anti-corruption issues;• analyzes the information on the results of the official inspections conducted on the facts of corruption in order to further improve the Bank's anti-corruption system;• participates in the development of the training program to improve the qualifications of Bank's employees in terms of anti-corruption standards;• controls the conduct of anti-bribery/corruption trainings for all Bank employees and their participation in them in accordance with training program;• monitors and controls compliance by employees with the current legislation of the Republic of Uzbekistan and internal documents and procedures on anti-bribery and corruption matters for preventing and combating bribery and corruption;• conducts inspections of the Bank's activities for compliance with its internal anti-bribery and corruption documents and procedures and international standards;• cooperates with law enforcement	<ul style="list-style-type: none">• Bankda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samarali ishlashini ta'minlash va nazorat qilish;• korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib borish. <p>4.3. ABC bo'limining asosiy funksiyalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:</p> <ul style="list-style-type: none">• korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki qoidalar loyihalarini ishlab chiqadi;• korrupsiyaviy va poraxo'rlik xavf-xatarlarini baholaydi;• maxsus axborot aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xavf-xatarlar va huquqbuzarliklar haqida kelib tushadigan murojaatlarni tahlil qiladi hamda ularni belgilangan tartibda ko'rib chiqilishini ta'minlaydi;• Bank xodimlariga korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha tushuntirish va tavsiyalar beradi;• korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Bankda korrupsiya faktlari yuzasidan o'tkazilgan xizmat tekshiruvlari natijalari haqidagi ma'lumotlarni tahlil qiladi;• Bank xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv rejalarining korrupsiyaga qarshi standartlarga doir qismini ishlab chiqishda ishtirok etadi;• o'quv rejaga muvofiq, Bankning barcha xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha treninglarning o'tkazilishini hamda ularda xodimlarning ishtirok etishini nazorat qiladi;• Bank tizimidagi xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va korrupsiyani oldini olish hamda unga qarshi kurashish bo'yicha ichki qoidalariga rioya qilinishini monitoring va nazorat qiladi;• Bank faoliyatining Bankni korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki qoidalariga hamda xalqaro standartlarga
--	--

<p>authorities in the implementation of measure to eradicate corruption or investigate corruption crimes;</p> <ul style="list-style-type: none">• ABC Part also performs other functions in accordance with legislative acts.	<p>muvofiqi yuzasidan tekshiruvlar o'tkazadi;</p> <ul style="list-style-type: none">• korrupsiyaviy xatti-harakatlarni bartaraf qilish yoki korrupsiyaviy jinoyatlarni tergov qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qiladi;• ABC bo'limi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshiradi.
<p style="text-align: center;">5. Duties and Responsibilities</p>	<p style="text-align: center;">5. Burch va mas'uliyat</p>
<p>6.1. <u>Bank's Management at all levels:</u></p> <ul style="list-style-type: none">• Is responsible for involvement in key decision-making and has the overall responsibility for the design and implementation of an anti-bribery and anti-corruption framework;• Sets "the tone from the top": creates an internal culture that is aware and responsive to the risks of anti-bribery and corruption;• Ensure that appropriate action is taken with respect to complaints, allegations and warnings;• Treat all complaints and reports confidentially.	<p>5.1. <u>Barcha darajadagi Bank rahbariyati:</u></p> <ul style="list-style-type: none">• Muhim qarorlarni qabul qilishda ishtirok etishga mas'uldir va poraxo'rlik hamda korrupsiyaga qarshi tizimni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun umumiy ravishda javobgar sanaladi;• "Yuqoridan ohang" tizimini o'rnatadi: poraxo'rlik va korrupsiyaviy xavf-xatarlardan xabardor bo'lishga va reaksiya qilishga qaratilgan ichki madaniyatni shakllantiradi;• Shikoyatlar, arizalar va ogohlantirishlarga javoban tegishli choralar ko'rilishini ta'minlaydi;• Har bir shikoyat va hisobotlarni maxfiy ravishda o'rganib chiqadi.
<p>6.2. <u>Compliance Committee</u> Carries on tasks and functions set out in Regulation on Compliance Committee.</p>	<p>5.2. <u>Komplayns Qo'mitasi:</u> Komplayns Qo'mitasi to'g'risidagi Nizomda belgilangan vazifalar va funksiyalarni amalga oshiradi.</p>
<p>6.3. <u>Commission for prevention of corruption in the Bank</u> Carries on tasks and functions set out in Regulation on Commission for Prevention of Corruption.</p>	<p>5.3. <u>Bankda korrupsiyaning oldini olish komissiyasi</u> Korrupsiyaning oldini olish komissiyasi to'g'risidagi Nizomda belgilangan vazifalar va funksiyalarni amalga oshiradi.</p>
<p>6.4. <u>Head of Compliance Department:</u></p> <ul style="list-style-type: none">• Oversees the effective functioning of key components of Compliance Function;• Periodically reviews reports of Head of Anti-Bribery and Corruption Part (hereinafter referred to as Head of ABC Part) on anti-bribery and corruption potential problems/issues;	<p>5.4. <u>Komplayns boshqarmasining boshlig'i:</u></p> <ul style="list-style-type: none">• Komplayns funksiyasining asosiy tarkibiy qismlarining samarali ishlashini nazorat qilish;• Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi boshlig'ining (keyingi o'rinlarda - ABC bo'limi boshlig'i) poraxo'rlik va korrupsiyaga qarshi potensial muammolar to'g'risidagi hisobotlarini

<ul style="list-style-type: none">• Monitors the efficiency, sufficiency and compliance of ABC Part activities;• Advice and support on risk and control issues to ABC Part in handling anti-bribery and corruption matters. <p>6.5. <u>Head of ABC Part shall:</u></p> <ul style="list-style-type: none">• Be responsible for antibribery and corruption risk assessments;• Report to management weaknesses identified in business processes that may allow bribery and corruption to take place;• Conduct investigation of any reported, suspected or actual cases of acts of bribery and corruption, involving Commission for prevention of corruption and Compliance Committee in aggravated cases;• Be responsible for training and informing staff members on anti-bribery and corruption matters;• Maintain an independent hot line indicated on Bank's official website;• Make proposals for improving Bank processes in order to reduce bribery and corruption risks. <p>Head of ABC Part is entitled to:</p> <ul style="list-style-type: none">✓ receive analytical materials, conclusions, statistical data and other information from the Bank employees on issues within their competence;✓ request and receive the necessary assistance from the Bank employees in the framework of their duties performance;✓ conduct internal inspections on corruption offenses identified in the activities of the Bank employees;✓ issue written instructions, orders and recommendations within the framework of the Bank's activities;	<p>vaqti-vaqti bilan ko'rib chiqish;</p> <ul style="list-style-type: none">• ABC bo'limi faoliyatining samaradorligi, etariligi va muvofiqligini nazorat qilish;• ABC bo'limi tomonidan poraxo'rlik va korrupsiyaga qarshi kurashishda tavakkalchilik hamda nazorat masalalari yuzasidan maslahat berish va qo'llab-quvvatlash. <p>5.5. <u>ABC bo'limi boshlig'i:</u></p> <ul style="list-style-type: none">• Poraxo'rlik va korrupsiyaviy xavf-xatarni baholash uchun javobgar hisoblanadi;• Poraxo'rlik va korrupsiyaga yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan biznes jarayonlarda aniqlangan zaif nuqtalar haqida rahbariyatga xabar beradi;• Og'irlashtiruvchi holatlarda Korrupsiyaning oldini olish komissiyasi va Komplayns qo'mitasini jalb qilgan holda, poraxo'rlik va korrupsiya harakatlarining har qanday xabar qilingan, gumon qilingan yoki sodir etilgan holatlarini tekshiradi;• Xodimlarni poraxo'rlik va korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan o'qitish va xabardor qilish uchun mas'ul sanaladi;• Bankning rasmiy veb-saytida ko'rsatilgan mustaqil ishonch telefoning ishlab turishini ta'minlaydi;• Korrupsiyaviy xavf-xatarni kamaytirish maqsadida Bank jarayonlarini yaxshilash bo'yicha takliflar kiritadi. <p>ABC bo'limi boshlig'ining huquqlari:</p> <ul style="list-style-type: none">✓ Bank xodimlaridan o'z vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha tahliliy materiallar, xulosalar, statistik ma'lumotlar va boshqa ma'lumotlarni olish;✓ bank xodimlaridan o'z vazifalarini bajarishi doirasida zarur ko'makni so'rash va olish;✓ bank xodimlari faoliyatida aniqlangan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar bo'yicha xizmat tekshiruvlari o'tkazish;✓ Bank faoliyati doirasida yozma ko'rsatmalar, buyruqlar va tavsiyalar berish;
---	---

<p>✓ participation in anti-bribery/corruption meetings of the Bank;</p> <p>✓ conducting inspections, requesting documents, receiving written explanations from employees.</p> <p>6.6. <u>All Bank Employees shall:</u></p> <ul style="list-style-type: none">• Be responsible for the prevention and detection of possible bribery and corruption;• Be responsible for effective management of anti-bribery and corruption risks related to their fields of activity;• Report to Head of ABC Part any cases of actual, potential, suspected or attempted acts of bribery and corruption they become aware of, whether the act of bribery and corruption is offered, given or received. Also assist in investigations and comply with the relevant controls;• Complete trainings and assessments when they are required to do so by the Chairman of the Board or Line Manager. <p>6. Main risk areas for acts of bribery and corruption</p> <p>6.1. <u>Gifts and representative costs</u> In order to avoid the risk of being perceived as bribing or being bribed by accepting gifts from or giving gifts to customers and suppliers, Bank employees should strictly follow the “Human Resources and Code of Conduct Policy” of the Bank on matters related to gifts and representative costs.</p> <p>6.2. <u>Charity, sponsorship, donations</u> 6.2.1. In no case charitable contribution, sponsorship or donation can be used as a subterfuge for bribery and corruption. 6.2.2. The Bank does not offer charitable support and sponsorships in order to gain preferential treatment and commercial</p>	<p>✓ Bankning poraxoʻrlik/korrupsiyaga qarshi kurash masalalariga bagʻishlangan yigʻilishlarida ishtirok etish;</p> <p>✓ tekshiruvlar oʻtkazish, hujjatlarni soʻrab olish, xodimlardan yozma tushuntirishlar olish.</p> <p>5.6. <u>Bankning barcha xodimlari:</u></p> <ul style="list-style-type: none">• Roʻy berishi mumkin boʻlgan poraxoʻrlik va korrupsiya holatlarining oldini olish va aniqlash uchun masʼul sanaladilar;• Oʻz faoliyat sohalari bilan bogʻliq poraxoʻrlik va korrupsiyaviy xavf-xatarlariga qarshi kurashni samarali boshqarish uchun masʼul hisoblanadilar;• ABC boʻlimi boshligʻiga oʻzlari xabar topgan, xabar beruvchi xodim tomonidan yoki unga nisbatan sodir etilgan poraxoʻrlik va korrupsiya holatlari toʻgʻrisida aniq, potensial, gumon qilinayotgan yoki urinish sodir boʻlganligi holatlari yuzasidan xabar berishlari lozim. Shuningdek, tekshiruvlarda yordam berishlari va tegishli nazorat tadbirlariga rioya qilishlari zarur;• Boshqaruv raisi yoki tarmoq menejeri tomonidan talab qilinganda, treninglar va baholashlarni yakunlashlari lozim. <p>6. Poraxoʻrlik va korrupsiyaviy harakatlarning sodir etilishi xavf-xatarini keltirib chiqaruvchi asosiy omillar</p> <p>6.1. <u>Sovgʻalar va vakillik xarajatlari</u> Mijozlar va taʼminotchilardan sovgʻalar olish yoki ularga sovgʻalar berish vositasida poraxoʻrga aylanib qolish holatlarining oldini olish uchun, Bank xodimlari sovgʻalar va vakillik xarajatlari bilan bogʻliq masalalar yuzasidan Bankning “Xodimlar bilan ishlash va odob-axloq siyosati”ga qatʼiy rioya qilishlari lozim.</p> <p>6.2. <u>Xayriya, homiylik va hadya</u> 6.2.1. Hech bir holatda xayriya, homiylik mablagʻlari yoki hadyadan poraxoʻrlik va korrupsiyaviy omil sifatida foydalanish mumkin emas. 6.2.2. Bank imtiyozli munosabat hamda tijorat afzalliklariga erishish uchun xayriya va</p>
--	---

<p>advantages.</p> <p>6.3. <u>Payments via intermediaries or on behalf of third parties</u> The Bank and its employees are prohibited to make any corrupt payments through any subsidiaries, agents, intermediaries, business partners, contractors or suppliers (individuals or organizations) of Bank or to make any payment to a third party where there is any reason to believe that all or a portion of the payment will go towards a bribe and corruption.</p> <p>6.4. <u>Facilitation payments</u> Facilitation payments are small bribes to Bank officials with a view to speeding up routine banking facilities to which the entity is already entitled. The Bank does not tolerate its employees or third parties in their relationship with the Bank, offering, promising, soliciting, demanding, giving or accepting any kind of facilitation payments to or from any third party. Any case of Facilitation payments must be reported to Head of ABC Part immediately.</p> <p>6.5. <u>Dealing with public officials</u> Dealing with public officials poses a particularly high risk in relation to bribery and corruption. The provision of money or anything else of value, no matter how small, to any public official for the purpose of influencing them in their official capacity is prohibited. The Bank refrains from paying any expenses for public servants and their close relatives (or in their interests) in order to obtain commercial advantages in specific projects of the Bank and its</p>	<p>homiylilikni taklif qilmaydi.</p> <p>6.3. <u>Vositachilar orqali yoxud uchinchi shaxslar manfaatlarini ko'zlab amalga oshiriladigan to'lovlar</u> Bank va uning xodimlariga har qanday sho'ba korxonalar, agentlar, vositachilar, biznes hamkorlar, shartnomalar bo'yicha hamkorlar yoki ta'minotchilar (jismoniy shaxslar yoxud tashkilotlar) orqali har qanday korrupsiyaviy to'lovlarni amalga oshirish yoki to'lovning hammasi yoki bir qismi pora va korrupsiyaviy holatni vujudga keltirishiga ishongan holda uchinchi shaxs nomiga har qanday to'lovni amalga oshirish taqiqlanadi.</p> <p>6.4. <u>Biron-bir masalaning hal qilinishini osonlashtirishga qaratilgan to'lovlar</u> Bunday to'lovlar Bank mansabdor shaxslariga Bank xizmatlarini ko'rsatishga doir biron-bir kundalik jarayonni tezlashtirish maqsadida, holbuki mazkur mansabdor shaxslar shundoq ham qayd etilgan masalalarni hal etish vakolatiga ega bo'lgan vaziyatda beriladigan kichik pora hisoblanadi. Bank o'z xodimlarining yoki uchinchi shaxslarning Bank bilan munosabatlarida, shu jumladan uchinchi shaxsga yoki uchinchi shaxs tomonidan bunday to'lovlarni taklif qilish, va'da berish, so'rash hamda talab qilib olish holatlariga yo'l qo'yilishiga qarshidir. Yugorida qayd etilgan to'lovlarga aloqador har qanday holat yuzasidan darhol ABC bo'limi boshlig'iga xabar berilishi lozim.</p> <p>6.5. <u>Mansabdor shaxslar bilan munosabatlar</u> Mansabdor shaxslar bilan munosabatlarga kirishish yuqori darajadagi poraxo'rlik va korrupsiyaviy xavf-xatarni tug'diradi. Har qanday mansabdor shaxsga o'z lavozimiga ta'sir o'tkazish maqsadida pul yoki boshqa biron-bir qimmatbaho narsa taqdim qilish, uning hajmidan qat'i nazar taqiqlanadi. Bank yoki uning filiallarining alohida loyihalarida tijorat afzalliklariga erishishi maqsadida Bank davlat xizmatchilari va ularning yaqin qarindoshlari uchun (yoki</p>
---	--

branches, including expenses for transportation, accommodation, food, entertainment, PR campaigns, or their receipt at the expense of the Bank.

6.6. Involvement in political activities

The Bank does not make contributions to political parties, organizations and movements in order to obtain commercial advantages in specific projects of the Bank and its branches.

6.7. Conflict of interest

The Bank employees must avoid situations when their personal interest could conflict with their professional obligations or duties or contradict the Bank's clients' interests.

